

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.E.Xodjamberdiyev

Sovet hukumati tomonidan O'zbekistonda madaniyat sohasida amalga oshirilgan milliy siyosat va uning ijtimoiy oqibatlari (1945-1960-yillar) 206

J.Sultonov

Xorazmshoh va Kuchlukning raqobati: Markaziy Osiyoda siyosiy kuchlari o'rtasidagi ziddiyat 212

U.X.Gulmatov

Transport tizimining avtomobil va temir yo'l tarmoqlarini kadrlar bilan ta'minlash muammolari va yechimi..... 219

A.H.Boltayev

Buxoro tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyatining faoliyatiga bir nazar 224

Sh.Qo'ldashev, B.Umarxodjayev

Farg'ona dostonchilik maktabi tarixiga doir ba'zi ma'lumotlar 228

M.F.Rasulov

Markaziy Osiyoda qadimgi arxivlar tarixi 231

A.A.Abduqahorov

XX asr boshida Turkistonda jadid matbuoti va uning jamiyatga ta'siri..... 237

 ILMIY AXBOROT
D.N.Toshpo'latov

Addiktiv axloqning milliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlarga ta'siri..... 241

F.E.Tuyev

Navoiy, Buxoro va Samarqand mintaqalariga xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi (1991-2008 yillar) 246



UO'K: 94(575)"1945/1960"+316.7+323.1

SOVET HUKUMATI TOMONIDAN O'ZBEKISTONDA MADANIYAT SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN MILLIY SIYOSAT VA UNING IJTIMOIIY OQIBATLARI (1945-1960-yillar)**НАЦИОНАЛЬНАЯ ПОЛИТИКА ПРОВОДИМАЯ СОВЕТСКИМ ПРАВИТЕЛЬСТВОМ В ОБЛАСТИ КУЛЬТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ, И ЕЕ СОЦИАЛЬНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ (1945-1960 ГОДЫ)****THE NATIONAL POLICY PURSUED BY THE SOVIET GOVERNMENT IN THE FIELD OF CULTURE IN UZBEKISTAN, AND ITS SOCIAL CONSEQUENCES (1945-1960)****Xodjamberdiyev Xurshidbek Egamberdiyevich** 
Andijon davlat universiteti, t.f.b.f.d., (PhD) dotsent**Annotatsiya**

Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushidan so'ng O'zbekistonda madaniyat, adabiyot sohalari kommunizm mafkurasi ta'sirida rivojlanishi ko'rsatilgan. Bundan tashqari adabiyot sohasida milliy qadriyatlarni va o'zbek milliy qahramonlarini ulug'lash hamda milliylikni jonlantirish harakati bo'lganligi ko'rsatilgan. Ko'plab o'zbek yozuvchilarini kommunistik hayotni aks ettirish o'rniga, asarlarida o'tmishni ortiqcha ulug'lashga moyillikda ayblanganligi. Sovet mafkurasi o'zbek adabiyoti muhitini to'liq kommunistik g'oyalarga bo'ysundirishga harakati. Achinarlisi o'zbek bolalar adabiyoti ham qattiq senzura olinganligi va kommunizm mafkurasi bilan sug'orilganligi tahlil qilingan. Bu jarayonda xalqni mustaqillikka intilish ruhiyatini yo'q qilish asosiy maqsadlardan biriga aylanganligi ochib berilgan. Milliy dramatik san'at namunalari yo'qola boshladi va o'ziga xos teatr an'analari yo'nalishida qator yo'qotishlar kuzatilganligi. Milliy, g'arb va rus tadqiqotchilarni asarlari qiyosiy tahlil qilingan.

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие культуры и литературы Узбекистана под влиянием коммунистической идеологии после Второй мировой войны. Кроме того, анализируется стремление к возвышению национальных ценностей и узбекских национальных героев, а также движение за возрождение национальной идентичности в литературе. Отмечается, что многие узбекские писатели обвинялись в чрезмерном идеализировании прошлого вместо отражения коммунистической действительности в своих произведениях. Советская идеология стремилась полностью подчинить узбекскую литературу коммунистическим идеям. Особенно тревожным аспектом данного процесса являлась жесткая цензура детской литературы, которая подвергалась идеологическому контролю и насыщалась коммунистической пропагандой. Анализируется, как одной из основных целей данного процесса стало подавление духа стремления народа к независимости. Кроме того, подчеркивается утрата образцов национального драматического искусства и исчезновение уникальных театральных традиций. В исследовании проводится сравнительный анализ трудов национальных, западных и российских ученых, освещающих данную тему.

Abstract

This article examines the development of culture and literature in Uzbekistan under the influence of communist ideology after World War II. Additionally, it analyzes the efforts to glorify national values and Uzbek national heroes, as well as the movement to revive national identity in literature. It is noted that many Uzbek writers were accused of excessive idealization of the past instead of reflecting communist reality in their works. The Soviet ideology sought to completely subordinate Uzbek literature to communist ideas. A particularly concerning aspect of this process was the strict censorship of children's literature, which was subjected to ideological control and infused with communist propaganda. The study analyzes how one of the primary goals of this process was to suppress the spirit of the people's aspiration for independence. Furthermore, the loss of national dramatic art forms and the disappearance of unique theatrical traditions are emphasized. The research includes a comparative analysis of the works of national, Western, and Russian scholars addressing this topic.

Kalit so'zlar: Milliy siyosat, ikkinchi jahon urushi, kommunistik mafkura, partiya, "buyuk rus millatchiligi" va "maxaliylashtirish", teatr, adabiyot, bolalar adabiyoti, senzura, milliylik, madaniyat, sotsialistik realizm.

Ключевые слова: национальная политика, Вторая мировая война, коммунистическая идеология, партия, «великий русский национализм» и «коренизация», театр, литература, детская литература, цензура, национальная идентичность, культура, социалистический реализм.

Key words: national policy, World War II, communist ideology, party, "great Russian nationalism" and "indigenization," theater, literature, children's literature, censorship, national identity, culture, socialist realism.

KIRISH

Sovet hukumati tomonidan 1940-1960-yillarda O'zbekistonda olib borilgan ilmiy va madaniy siyosatning asosiy yo'nalishlari milliy madaniyatni sovet mafkurasi bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan edi. Bu jarayonda milliy o'zlik va madaniy meros kamsitilib, uning o'rniga sotsialistik realizm va kommunistik g'oyalar singdirildi.

Sovet Ittifoqida millatchilikning kuchayishi Rossiya siyosiy tadqiqotchilar va etnik nizolar bo'yicha mutaxassislar uchun eng dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Boshqa tomondan, SSSRdagi milliy siyosat masalasi kamroq tahlil qilinib, asosan millat va millatlararo munosabatlar doirasida o'rganiladi.

Markazning O'zbekistonda madaniy sohada olib borgan milliy siyosati, asosan, rus madaniyatini ulug'lashga yo'naltirilganligini kuzatish mumkin. 1946-yil fevral oyida SSSR Oliy Kengashiga, 1947-yil fevral oyida esa O'zbekiston SSR Oliy Kengashiga saylovlar munosabati bilan ommaviy siyosiy va mafkuraviy ishlar keng qamrovli tarzda olib borildi. Respublika partiya tashkilotlari ayniqsa qishloq aholisi o'rtasida targ'ibot ishlarini faol yo'lga qo'ydi. Biroq, Sobiq Ittifoq rahbarlari O'zbekistondagi partiya tashkilotlarining mafkuraviy va siyosiy faoliyatidan norozi edilar. Sababi, mahalliy rahbar kadrlar va ziyolilarni tarbiyalashda sovet mafkurasini to'la qonli insonlarni ongiga singdirilmagandan va shu yo'nalishda ishlar sust olib borilayotganligini ta'kidlangan. Adabiyot, teatr va ijtimoiy fanlarni rivojlantirishda esa bir qator xatolarga yo'l qo'yilganligi, hamda o'zbek adabiyoti ayrim yutuqlarga qaramay, Sovet Ittifoqi hayotining talablariga moslashmaganligi hamda g'oyaviy-badiiy saviyasining pastligi bilan ajralib turishida ayblangan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Markaz tomonidan olib borilgan milliy siyosatini oltita alohida davr orqali tahlil qilish mumkin: 1) inqilob va fuqarolar urushi (1917-1925); 2) ijobiy kamsitish siyosati (1926-1939); 3) buyuk rus millatchiligi (1940-1955); 4) "mahalliyashtirish" (korenizatsiya) (1956-1970); 5) ziddiyatlar yuksalishi (1971-1985); 6) qayta qurish (1986-1991) [1.102]. Milliy siyosat yangi etnik o'ziga xosliklarni yaratish edi, shu munosabat bilan madaniy va lingvistik siyosat va ta'lim muhim rol o'ynay boshladi. Aynan biz tadqiqot olib borgan davr "buyuk rus millatchiligi" va "mahalliyashtirish" davriga to'g'ri keladi. Urushdan keyingi milliy siyosat rus xalqining urushdagi g'alabaga qo'shgan ulkan hissasini ta'kidladi. Buyuk rus millatchiligi siyosatining ilgari surilishi madaniy-ma'rifiy sohada ruslashtirishga qaratiladi. Ta'limda ruslar va rus tili hamda adabiyoti roli sezilarli darajada oshirishga e'tibor qaratilgan. Endi Markazni rasmiy nuqtai nazari, jahon tarixidagi barcha buyuk ishlarni ruslar qilgan degan mafkurani xalq ongiga singdirishga harakat qilishgan. Kommunizmning tarqalishida xam rus xalqini beqiyos mehnati deb e'tirof etilgan, shuning uchun ruslarning yangi dunyo tartibidagi roli shubhasiz edi. Rus madaniyati, tili va adabiyotining roli ham shubhasiz yuqori daraja olib chiqilgan.

Sovet davridagi madaniy-ma'rifiy jarayonlarni tahlil qilishda turli manbalar va metodologiyalar mavjud. Rossiya va G'arb tadqiqotchilarining yondashuvlari bir-biridan sezilarli darajada farq qilib, ularda milliy siyosat, madaniyat va mafkuraning shakllanishiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. O'zbekistonning sovet davridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy o'zgarishlarini har tomonlama tushunish uchun mazkur manbalarni birgalikda tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

O'rganilayotgan davr ilmiy adabiyotlarini guruhlariga bo'lib tadqiq qildik. Birinchi guruhga: 1991-yildan so'ng yozilgan milliy ilmiy adabiyotlar, memuarlar, xotiralar, davriy nashrlar va arxiv manbalar.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng O'zbekistondagi madaniy hayotni va ruxni aks ettirgan asar "Maqsud Shayxzoda" ta'kidlash mumkin. Mazkur asar ma'rifiy-biografik roman janrida yozilgan bo'lib, mashhur o'zbek shoiri va adabiyotshunosi Maqsud Shayxzodaning hayoti va ijodiga bag'ishlangan. Unda muallif Shayxzodaning adabiy faoliyati, shaxsiy qarashlari hamda ijtimoiy-siyosiy muhitda tutgan o'rnini yoritadi. Ijodiy qarashlari, sovet davridagi madaniy jarayonlarga munosabati yoki shaxsiy hayoti bilan bog'liq muhim voqealar yoritilgan[2]. O'zbek siyosatchilardan o'zini memuarlarini yozgan mashhur davlat arbobi N.Muhitdinov hisoblanadi. O'zining memuarlarida madaniy sohadagi o'zgarishlarga ham to'xtalib o'tadi. Ayniqsa, sovet davrida madaniyat, ma'rifat va ilm-fan taraqqiyotidagi islohotlarga alohida e'tibor qaratadi. Sovet davridagi adabiyot va san'atning kommunistik mafkuraga xizmat qilishi haqida fikr bildiradi [3].

"O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida" asari O'zbekistonning sovet hukmronligi davridagi tarixiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarini tadqiq etadi. O'zbekistondagi ijtimoiy-

siyosiy o'zgarishlar, milliy harakatlar yoki madaniy-ma'rifiy jarayonlarga oid ma'lumotlar bayon etilgan. Kitob mutaxassislar va tarixshunoslar uchun muhim manba hisoblanadi[4].

Ikkinchi guruhga: Rossiya olimlari tomonidan yozilgan ilmiy adabiyotlar orqali. Rossiya tarixshunosligida esa mazkur davr asosan materialistik metodologiya asosida tahlil qilinib, sovet siyosati ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning uzviy qismi sifatida qaraladi. Bundan tashqari, rus olimlari tadqiqotlarida davlat boshqaruvi va markazlashgan hokimiyat mexanizmlariga katta e'tibor qaratiladi.

Uchinchi guruhga: Chet el olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar. G'arb mutaxassislari, odatda, Sovet Ittifoqi siyosatini mustamlakachilik, markazlashtirilgan boshqaruv va totalitarizm nuqtai nazaridan tahlil qiladilar. Ular bu jarayonni "metropoliya – periferiya" munosabati kontekstida baholab, sovet hokimiyatining mahalliy jamiyatga ta'sirini tanqidiy nuqtai nazardan o'rganadilar.

Masalan: K. Xansenning doktorlik dissertatsiyasida 1945–1964-yillarda O'zbekistonda sovet boshqaruvining faoliyati tahlil qilinadi. Muallif ushbu ishda sovet hokimiyatining ikki asosiy qarama-qarshi kuchini o'rganadi. Shu bilan birga, kommunistik g'oyalarni jamoat ongiga singdirishda adabiyot va san'atni asosiy mafkuraviy vosita sifatida qo'llash amaliyotiga alohida e'tibor qaratadi[5].

Devid Brandenbergerning asarida Sovet Ittifoqida, ayniqsa, ikkinchi jahon urushidan so'ng, rus milliy g'oyalarining shakllanishi va taraqqiyotini o'rganadi. Muallif kommunizm g'oyasining shakllanishida ommaviy madaniyat va mafkuraviy tizimning rolini tahlil qiladi. Asar Sovet Ittifoqidagi millatchilik va kommunizm munosabatini o'rganuvchi muhim tadqiqotlardan biri hisoblanadi[6].

1945–1960-yillarda Sovet Ittifoqining O'zbekistonda olib borgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy siyosati chet ellik tadqiqotchilar xususan M.Kukkiolla, D.Kandioti, N.Norling, R.Kerran, T.Kenni, D.Peterson, va boshqa tadqiqotchilar tomonidan tahlil qilinib, ushbu yo'nalishda bir qator dissertatsiya ishlari yozilgan [7]. Bu tadqiqotlarda G'arb ilmiy maktablariga xos metodologik yondashuvlar qo'llanilib, mazkur davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar maxsus konseptual paradigma doirasida talqin etilgan.

Shu bilan birga, G'arb tadqiqotchilari diskurslarida milliy rivojlanish, modernizatsiya jarayonlari va mahalliy elitalarning Sovet siyosatidagi roliga alohida e'tibor qaratiladi. Bunday yondashuvlar rus akademik an'analaridagi materialistik tarixiy tahlildan farq qilib, ko'p hollarda ijtimoiy konstruktivizm, postkolonial nazariya yoki mafkuraviy diskurs tahlili metodlariga asoslangan.

Umuman olganda, G'arb va rus tadqiqot maktablari o'rtasidagi ushbu metodologik farqlar Sovet Ittifoqining O'zbekistondagi siyosatiga oid turlicha qarashlar va baholar yuzaga kelishining asosiy omili hisoblanadi.

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Ko'plab o'zbek yozuvchilari kommunistik hayotni aks ettirish o'rniga, asarlarida o'tmishni ortiqcha ulug'lashga moyillikda ayblangan. Ularning ijodida xonliklar bo'lgan davrdagi aholi yashash turmush tarzini ulug'lash holatlarini ko'rsatib berilganlikda, bundan tashqari xonlar va beglarni hayoti, turmush tarzi va axloqini madh etishganda ayblangan [8].

Sovet mafkurasida o'zbek adabiyoti muhitini to'liq kommunistik g'oyalarga bo'ysundirishga harakat qilgan. Bu jarayonda xalqni mustaqillikka intilish ruhiyatini yo'q qilish asosiy maqsadlardan biriga aylangan. Buning yaqqol namunasi sifatida Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" pyesasining taqiqlanishi ko'rsatib o'tish mumkin. Akademik Naim Karimov "Maqsud Shayxzoda" asarida shunday yozadi: 1946-yil 14-avgustda VKP(b) Markaziy Qo'mitasining "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari to'g'risidagi mash'um qarori e'lon qilinadi. Oradan ikki hafta o'tmay, 26-avgustda Markaziy Qo'mitasining adabiyot va san'at olamini larzaga keltirgan "Dramatik teatrlarning repertuari va uni yaxshilash yo'llari" degan va boshqa qarorlari chiqadi. Urushning tashvishli yillaridan aziz jigarbandlarini yo'qotib, horib-charchab chiqqan ijodiy ziyolilar boshida yana qora bulutlar to'plana boshlaydi. Sovet davlati taqdiri xavf ostida qolgan urush yillarida ardoqlangan o'tmish podsho va sarkardalari yana keskin qoralanib, ular haqida asar yozgan yozuvchilar esa feodal o'tmishni qo'msash va ideallashtirishda ayblanadilar. Sovet mafkurasining zaharli qilichi birinchilardan bo'lib "Jaloliddin Manguberdi"ning boshiga tushadi[9,150-151]. Bu qarorlar natijasida ijodkor ziyolilar qat'iy mafkuraviy nazoratga olingan.

1947-yilda VKP(b) Markaziy Qo'mitasining targ'ibot va tashviqot bo'limi boshlig'ining o'rinbosari A. M. Yegorin "O'zbekistonda mafkura va targ'ibot ishlari holati to'g'risida" hisobotida "Jaloliddin Manguberdi"ni shaxsini kamsitishga uringan. Uni qaroqchi, boy zodagonlar manfaatini himoya qiluvchi, Kavkazorti xalqlarini qirg'in qilgan qonxo'r jallod sifatida tasvirlagan. Manguberdi mo'g'ul bosqinchilarga qarshi kurashdagi rolini pasaytirishga uringan. Bundan tashqari Maqsud

TARIX

Shayxzodani “Jaloliddin Manguberdi” pyesasini, Yancheveskiyni “Bo’ysunmas Jaloliddin” romanini xam qattiq tanqid ostiga olgan. Maktab darsliklardan Manguberdi haqida xar qanday ma’lumotni olib tashlashni talab qilgan”[10,173]. Bu holatlar Sovet mafkurasi o’tmish tarixiy shaxslarini qayta baholash, milliy qahramonlarning obro’sini pasaytirish va mahalliy madaniy merosni kommunistik mafkura doirasida qayta shakllantirish siyosati doirasida amalga oshirilganini ko’rsatadi. Bu siyosat milliy madaniyatning tabiiy rivojlanishini cheklash bilan birga, o’zbek ziyolilarining ijodiy erkinligini ham jiddiy darajada tahdid ostiga qo’ygan.

Partiya organlarining ko’rsatmasi va rahbarligida badiiy ziyolilar orasida mavjud “millatchilik”, panturkizm va kosmopolitizm ko’rinishlari ko’rinishlarini “fosh qilish” yuzasidan respublika matbuoti sahifalarida keng kompaniya avj oldirib yuborildi. 1949-yil 11-yanvarda “Pravda” gazetasida chop etilgan maqolada ilgari surilgan “millatsiz kosmopolitizm” va O’zbekiston SSR o’rtasidagi bog’liqlik ta’riflangan edi. V. Jirmunskiy va X. Zarifovning **“Milliy o’zbek eposida qahramonlik”** kitobiga berilgan taqrizda mualliflar “burjua kosmopolitizm” va “formalizm”da ayblangan [11,114]. Bundan tashqari 1951-avgustda “Pravda Vostoka” gazetasida M. Ivanov, V. Lavrov, F. Iskandarovlar xamuallifligida “o’zbek adabiyoti vazifalaridan tashqari” sarlavha ostida chop etilgan maqolada Respublika Fanlar Akademiyasi “Til va adabiyot instituti” “O’rtoq Stalinning til haqidagi ajoyib ta’limoti” ga yetarlicha rioya qilmagani uchun qattiq tanqid qilindi. Maqolaning johil mualliflari o’zbek adabiyotshunoslarining katta guruhini ayblashdi, ularning asarlarida “ilg’or o’zbek shoirlari Furqat, Muqimiy, Turdi, Avaza Otara, Gulxaniyning roli sust, ammo xon shoirlari ustun. Oybek, shu jumladan, qattiq tanqid qilindi “o’zbek she’riyati antologiyasida” reaksion shoir Miskin burjua millatchi Avloniyning qobiliyatsiz misralari. Respublika Yozuvchilar uyushmasining IV plenumida adabiyotshunos olimlarning qattiq tanqidlari ham aytili. Shunday qilib, M. Yunusov “mafkuraviy zararli” deb nomlangan milliy qahramonlik eposini qadrlagani uchun mafkuraviy ayblovlarga duchor bo’ldi[12,172].

Mustabid tuzum o’zining birinchi zarbasini respublikaning bir guruh yozuvchilari va shoirlariga qaratdi, chunki ularning dunyoqarashi hamda adabiy ijodi kommunistik partiyaning mafkuraviy andozasiga mos kelmas edi. Badnom qilish uchun asosiy bahona shu bo’ldiki, ular o’z asarlariga millatchilik g’oyalarini “olib kirgan” ekanlar. Ular dan bir qanchalari qatag’on qilingan. Respublika davlat xavfsizligi organlari 1951-yilda “Yozuvchilar uyushmasida va ayrim matbuot organlarida “uya qurgan” 12 kishidan iborat “sovetlarga qarshi millatchilar guruhi” ni “fosh etdi” [13,151]. Bu guruhga shoir va yozuvchilardan Shukrullo Yusupov (Shukrullo), G’ulom Alimov (Shuhrat), Maqsud Shayxzoda va boshqalar, shuningdek, jurnalistlardan Yong’in Mirzayev, Abdurahmon Alimuhamedov, Nabi Alimuhamedov, Husanxo’jayev va boshqalar kiritilgan edi[14,512-513]. 1950-yilda O’zbekiston kompartiyasini MQ kotibi N.Muxitdinov shunday eslaydi: “1950-yil aprel oyining oxirida Markaziy qo’mitada kotib sifatida ishlay boshladim. Ko’p o’tmay 1948-1949-yillarda qatag’on qilingan olimlar va adabiyotshunoslarning ismlarini bilib oldim — yigirmadan ortiq yirik iste’dodli olimlar, shoirlar va yozuvchilar “millatchi tarafkashlikda” ayblanib va yopiq eshiklar ortida, sud qilindi. Xar bir adibni 15 yildan 25 yilgacha ozodlikdan mahrum qilingan edi. Bularning barchasi haqida faqat tergov jarayonining bevosita ishtirokchilari bilishgan va mahkumlar qayerga surgun qilinganini hech kim, hatto yaqinlari ham bilishmagan”[15,53-54].

Sovet hokimiyati bolalar ongini xam yoshlik davrdan faqat kommunizm g’oyalar bilan sug’orilishini, ularda milliy qadriyatlar o’rniga sovet qadriyatini singdirishga zo’r berib harakat qilishgan. Kommunizm mafkurasini o’zbek farzandlariga bolalar adabiyoti orqali xam singdirib borilgan. Madaniyatning barcha turlari, shu jumladan bolalar adabiyoti sovet jamiyat qurish va sovet odamini tarbiyalash muammosini hal qilishga chaqirilgan. Bolalar kitobi sovet odamini shakllantirish uchun mafkuraviy kurashda kuchli vosita, bolalik yesa Sovet jamiyatining eng yuksak ideallariga javob beradigan shaxsni tarbiyalashga yordam beradigan eng muhim davr sifatida qaralgan. 1951-yil aprel oyida bolalar adabiyoti bo’yicha Butunittifoq yig’ilishi bo’lib o’tdi, unda bolalar adabiyotining g’oyaviy va badiiy darajasini oshirish talablari qo’yildi. O’sha paytda “Pravda” Markaziy gazetasida M. Belaxovaning “bolalar uchun yaxshi kitoblar” degan maqolasi chop etilgan. Unda bolalar uchun adabiyot kommunistik ta’lim yo’lida muhim rol o’ynashini aniq ko’rsatib berilganligi, ya’ni bolalar ongini kommunistik mafkurasi bilan ulg’aytirish g’oyasi ilgari surilgan[16].

Bu sohada o’zbek adiblar tomonidan olib borilgan ishlar Markaz tomonidan qoniqarsiz deb baholangan. Sababi o’zbek adiblari o’zbek milliy qadriyatlarini, urf-odatlarini, oz bo’lsa xam saqlab qolishga urinishgan. 1949-yil 9-avgustdagi VKP (b) Markaziy Qo’mitasining partiya, kasaba

uyushmasi va Komsomol tashkilotlari bo'limi tomonidan "O'zbekiston Sovet Yozuvchilar uyushmasi ishidagi kamchiliklar to'g'risida" xulosasida: "O'zbekistonda bolalar va o'smirlar adabiyoti mutlaqo qoniqarsiz holatda ekanligini. So'nggi yillarda o'zbek yozuvchilari tomonidan bolalar uchun birorta ham original asar yozilmaganligini ta'kidlab o'tgan. O'zbekiston yozuvchilarining faoliyatidagi eng katta kamchiliklardan biri – zamonaviy mavzularda yozilgan asarlarining badiiy saviyasi juda past ekanligidir. Sharipovning **"Xorazm"** va **"Maksim Gorkiy"** dostonlari, Babayevning **"Eron daftarlari"** dostoni, O'tkir Rashidov she'rlari va boshqa ko'plab asarlarning tili juda kambag'al va tartibsiz, syujetlari yetarli darajada ishlanmagan, muammo va voqealar sun'iy ravishda uydirilgan. Shu sababli, asar qahramonlari hatto ijobiy tasvirlangan taqdirda ham o'quvchilarning e'tiborini jalb etmaydi va bu asarlar xalq orasida ommalashmaydi degan xulosa berilgan"[17,294]. Bolalar adabiyoti nafaqat 18 yoshgacha bo'lgan kitobxonlarga qaratilgan, balki davlat nuqtai nazaridan muhim mafkuraviy vazifani bajargan. Partiya va davlat organlari tizimli asosda bolalar adabiyotini mamlakat fuqarolarining farzandlarini aniq ko'rsatmalar bilan tarbiyalash vositasiga aylantirdilar. Sovet hokimiyati bolalar adabiyotini targ'ibot va mafkuraviy vosita sifatida qabul qilib, uning milliy qadriyatlar bilan boyishini qo'llab-quvvatlamagan. Bu holat o'zbek yozuvchilarining ijodiy erkinligini cheklab, zamonaviy mavzularda yozilgan asarlarning talab darajasida bo'lmasligiga sabab bo'lgan. Shu bilan birga, bolalar adabiyoti ijtimoiy-siyosiy maqsadlarga mos ravishda shakllantirilgan bo'lib, yozuvchilar bu yo'nalishda jiddiy tanqidlarga uchragan.

O'zbekistonda teatr san'ati muayyan darajada rivojlangan bo'lsa-da, ushbu jarayon ko'plab muammolar va cheklovlar bilan kechgan. Teatr o'zbek jamiyatning muhim madaniy va ijtimoiy qatlami sifatida qaralgan bo'lsa ham, uning rivoji sovet mafkurasini, senzura va partiyaviy talablar doirasida cheklanib qolgan. O'zbek teatri urushdan so'ng asosan sovet mafkurasini targ'ib etuvchi Kommunizm dohiylarini va partiya mafkurasiga to'g'ri keladigan spektakllar sahnalashtirildi.

O'zbekistonda teatr san'ati rivojida milliylikka e'tibori va intilishi, Markaz tomonidan jiddiy qoralandi. Respublikada teatr san'at ijodiy turg'unlikni boshdan kechirmoqda deb baholandi. 1951-yil 8-aprelda O'z KP(b) MQ byurosi "O'zbekiston SSRda musiqa san'atining ahvoli va uni yanada rivojlantirish choralari to'g'risida" qaror qabul qildi[18,151-152]. Unda "afsonaviy-xayoliy syujetlar asosida" opera, balet va musiqali drama asarlari yaratish hamda keng targ'ib qilishdan iborat "zararli tajriba" ("Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", Tohir va Zuhra", "Alpomish", "Gulandom" va boshqalar), ko'pgina san'at tashkilotlari va musiqali teatrlar xodimlari tomonidan "eski arxaik musiqa va eng g'amgin va mungli ohangdagi maqom namunalari" ning keng targ'ib qilinishi qoralanadi. Bularning hammasidan MQ byurosi "O'zbekiston musiqa madaniyati hayotdan orqada qolmoqda, o'zbek xalqini kommunistik ruhda tarbiyalash maqsadlari hamda vazifalariga xizmat qilmayapti"[19,513] deb xulosa chiqardi.

1947-yilda VKP(b) Markaziy Qo'mitasining targ'ibot va tashviqot bo'limi boshlig'ining o'rinbosari A. M. Yegorin "O'zbekistonda mafkura va targ'ibot ishlari holati to'g'risida" hisobotida. Shunday yozadi "So'nggi yillarda o'zbek teatrlarida deyarli faqat tarixiy yoki afsonaviy folklor mazmunidagi pyesalar sahnalashtirilmoqda. VKP(b) Markaziy Qo'mitasining "Drama teatrlari repertuari to'g'risida" qarori e'lon qilingandan so'ng. O'zbekiston teatrlarida atigi 6 ta spektakl zamonaviy mavzuga bag'ishlangan; shulardan 4 tasi axloqsiz va badiiy jihatdan zaif deb topilgan. Shunday qilib, o'zbek repertuari teatrlar zamonaviy haqiqatdan ajralgan.

1944-1946-yillarda O'zbekiston hukumati spektakllar uchun davlat buyurtmalariga 1 845 000 rubl sarfladi. Biroq, ushbu spektakllarning aksariyati ishlab chiqarish uchun yaroqsiz bo'lib chiqdi.

Rus klassik repertuari O'zbek teatrida Ostrovskiy va Lermontovning bir nechta spektakllari bilan namoyish etilgan xolos. Chexov va Gorkiy pyesalari, shuningdek, Sovet dramaturglarining pyesalari sahnalashtirilmagan"[20,174]. Sovet mafkurasini milliy san'atga shubha bilan qarab, ko'proq rus klassikasi va sotsialistik realizmga asoslangan asarlarni teatr sahnasiga olib chiqishni rag'batlantirdi. Natijada, milliy dramatik san'at namunalari yo'qola boshladi va o'ziga xos teatr an'analari yo'nalishida qator yo'qotishlar kuzatildi.

XULOSA

1950-1960-yillarda Sovet hukumati O'zbekistonda olib borgan ilmiy va madaniy siyosat mahalliy madaniyatni rivojlantirish bilan birga, uni sovet mafkurasiga moslashtirishga qaratilgan edi. Milliy o'zlik va madaniy meros kamsitilib, uning o'rniga sotsialistik realizm va kommunistik g'oyalar targ'ib qilindi. Bu jarayon milliy ziyolilarning tanqidiy fikrlashini cheklab, ijodiy erkinlikni keskin taqiqladi. Badiiy, madaniy va ta'lim sohalarida ruslashtirish siyosati kuchaytirilib, milliy qadriyatlar mafkuraviy senzura uchrad.

TARIX

Bu davrning ijobiy jihatlaridan biri sifatida fan va madaniyat sohasidagi rivojlanishni ta'kidlash mumkin. Lekin, salbiy tomoni shunda ediki, bu rivojlanish mustaqil ravishda emas, balki Sovet hokimiyati tomonidan qat'iy mafkuraviy nazorat ostida amalga oshirildi. Milliy madaniyat va tarixiy shaxslar haqidagi materiallar qayta ko'rib chiqilib, ko'plab mahalliy ziyolilar millatchilikda ayblanib, ta'qibga uchradi.

Natijada, sovet siyosatining bu davri milliy o'zlikni anglash jarayoniga jiddiy to'siq bo'ldi va mustaqillikka intilish ruhiyatini so'ndirishga qaratilgan siyosat olib borildi. Biroq, 1980-yillarning oxiri va 1990-yillar boshlaridagi millatchilik harakatlari aynan ushbu siyosatning uzoq muddatli oqibati sifatida ko'rilishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Politicheskaya nauka, 2016, № 1. A.N.Sherbak, L.S. Bolyacheves, Ye.S.Platonova. Istoriya sovestkoy natsionalnoy politiki: kolebaniya mayatnika?. S-102.
2. Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman. – T.: "Sharq" Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman. – T.: "Sharq" b. 150-151
3. N.Muxitdinov. Reka vremeni: Ot Stalina do Gorbachyova: Vospominaniya. M., 1995. 656s.
4. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida//Tuzuvchilar: M.Jo'rayev, R.Nurullin, S.Kamalov va boshq.; Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jayev (rais) va boshq/ — T.: "Sharq", 2000. – 688b.
- 5.Claus Bech Hansen.The Ambivalent Empire Soviet Rule in the Uzbek Soviet Socialist Republic, 1945–1964. Florence, April, 2013 (defence). -341R.
6. D.L.Brandenberger. Natsional-bolshevizm. Stalinskaya massovaya kultura i formirovaniye russkogo natsionalnogo samosoznaniya (1931-1956 gg.)/perevod s angliyskogo N.Aleshinoy i L.Vysotskogo – SPB.: Akademicheskiiy proyekt, Izdatelstvo DNK, 2009 – 416s.
7. Cucciolla R.M. The Crisis of Soviet Power in Central Asia: The "Uzbek Cotton Affair" (1975-1991): Dissertation work for the degree of PhD in Political History. – Lucca: 2017.-671 p.; Kandiyo D. Agrarian Reform, Gender and Land Rights in Uzbekistan. Programme on Social Policy and Development, Paper No.11, Geneva: UNRISD, 2002.-79 p.; Shu muallif. Post-Soviet Institutional Design, NGOs and Rural Livelihoods in Uzbekistan.-Geneva: UNRISD, 2004.-28 p.; Nicklas Norling. MYTH AND REALITY: POLITICS IN SOVIET UZBEKISTAN. A dissertation submitted to Johns Hopkins University in conformity with the requirements for the degree of Doctor of Philosophy, Baltimore, Maryland, 2014.-337p.; R. Keeran and T. Kenny. Socialism Betrayed: Behind the Collapse of the Soviet Union. Universe, 2010. -340p.; Derek Edward Peterson. When a Pound Weighed a Ton: The Cotton Scandal and Uzbek National Consciousness. Presented in Partial Fulfillment of the Requirements for the Degree Master of Arts in the Graduate School of The Ohio State University. Derek Edward Peterson, 2013. -71p.;
8. Sovetskaya natsionalnaya politika: ideologiya i praktiki. 1945-1953 / S56 sost.: L. P. Kosheleva, O. V. Xlevnyuk (otv. sost.), V. Dyonninghaus, Dj. Kadio, M. Yu. Prozumenichikov, L. A. Rogovaya, A. Ye. Svensiskaya, Dj. Smit, Ye. V. Sheveleva. — M. : Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya (ROSSPEN), 2013. -S.172.
9. Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman.—T.: "Sharq" Maqsud Shayxzoda: Ma'rifiy-biografik roman. – T.: "Sharq" b. 151
10. Sovetskaya natsionalnaya politika: ideologiya i praktiki. 1945-1953 / S56 sost.: L. P. Kosheleva, O. V. Xlevnyuk (otv. sost.), V. Dyonninghaus, Dj. Kadio, M. Yu. Prozumenichikov, L. A. Rogovaya, A. Ye. Svensiskaya, Dj. Sm-it, Ye. V. Sheveleva. — M. : Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya (ROSSPEN), 2013. — S.173.
11. Claus Bech Hansen.The Ambivalent Empire Soviet Rule in the Uzbek Soviet Socialist Republic, 1945–1964. Florence, April, 2013 (defence). -341R.
12. Repressivnaya politika sovetkoy vlasti i kultura Uzbekistana: tragediya vyjivaniya (1925-1953 gg.)/Z.R.Ishanxodjayeva; nauch. red. D. A. Alimova; Ministerstvo vysshego i srednego spetsialnogo obrazovaniya Respubliki Uzbekistan, Natsionalnyy universitet Uzbekistana im. Mirzo Ulugbeka. — Tashkent : Tafakkur, 2011 — s.172.
13. O'zPA, 58-fond, 27-ro'yxat, 54-yig'ma jild, 151 varak.
14. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida//Tuzuvchila: M.Jo'rayev, R.Nurullin, S.Kamalov va boshq.; Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jayev (rais) va boshq/ — T.: "Sharq", 2000. – 688b. (str512-513)
15. N.Muxitdinov. Reka vremeni: Ot Stalina do Gorbachyova: Vospominaniya. M., 1995. 656s. (str 53-54)
16. M. Bekmagambetova, Z. Shaxaman. Detskaya literatura Kazaxstana v 1950-ye gody: vyzovy vremeni i preodoleniy prepyatstviy. <https://detskie-chtenia.ru/index.php/journal/article/view/637/626>
17. Sovetskaya natsionalnaya politika: ideologiya i praktiki. 1945-1953 / S56 sost.: L. P. Kosheleva, O. V. Xlevnyuk (otv. sost.), V. Dyonninghaus, Dj. Kadio, M. Yu. Prozumenichikov, L. A. Rogovaya, A. Ye. Svensiskaya, Dj. Sm-it, Ye. V. Sheveleva. — M. : Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya (ROSSPEN), 2013. — S.294.
18. O'zPA, 58-fond, 27-ro'yxat, 54-yig'ma jild, 151-152 varaklar.
19. O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida//Tuzuvchila: M.Jo'rayev, R.Nurullin, S.Kamalov va boshq.; Tahrir hay'ati: A.Azizxo'jayev (rais) va boshq/ — T.: "Sharq", 2000. – 688b.
20. Sovetskaya natsionalnaya politika: ideologiya i praktiki. 1945-1953 / S56 sost.: L. P. Kosheleva, O. V. Xlevnyuk (otv. sost.), V. Dyonninghaus, Dj. Kadio, M. Yu. Prozumenichikov, L. A. Rogovaya, A. Ye. Svensiskaya, Dj. Sm-it, Ye. V. Sheveleva. — M. : Rossiyskaya politicheskaya ensiklopediya (ROSSPEN), 2013. — S.174.